

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUN VA MOHIYATI

Ilmiy rahbar: UrDPI Maktabgacha ta'lim kafedrası
katta o'qituvchisi Bekchanova Feruza
Maktabgacha ta'lim 2-bosqich talabasi
Bobanazarova Yulduz

Kalit so'zlar: Tafakkur, tasavvur, nutq, rivojlanish, ong, muloqot

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkurni rivojlantirishning mazmun mohiyati ochib berishga qaratilgan. Shu bilan birgalikda bu maqolada bolalarning tafakkurini rivojlantirishda nimalarga ahamiyat berish, uning maqsadi va vazifalari o'z aksini topgan.

Bugungi kunda davlatimiz tamonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Maktabgacha yosh — inson hayotidagi eng muhim psixologik va ijtimoiy rivojlanish bosqichlaridan biridir. Aynan shu davrda bolaning tafakkuri shakllanadi va rivojlanadi.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari sonini yanada oshirish va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo'ldi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga

malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qaroriga muvofiq:

1. Quyidagilar:

a) O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq, quyidagilarni nazarda tutgan holda:

maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta'minlash;

Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim jarayonida ham o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash faoliyat jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir faoliyatning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy faoliyat shaklini saqlab qolgan holda bolalarni faollashtiradigan turlituman metodlar bilan boyitish tariyalanuvchilarning o'zlashtirish darajasi

o'sishiga olib keladi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'limtarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar

interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng

ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim tashkilotlarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun faoliyat jarayoni oqilona tashkil qilinishi, pedagog tomonidan tarbiyalanuvchilarning qiziqishini orttirib, ularning faoliyat jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, mavzu yuzasidan kichik-kichik bo'laklarga bo'lib mashg'ulotlar tashkil etish, ularning mazmunini ochishda savol-javobdan foydalanish, kichik guruhlarda ishlash, mnemonika, steam, triz texnologiyalari, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va tarbiyalanuvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat ta'lim oluvchini mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlaridan foydalanishning nazariy asoslariga quyidagi muhim jihatlarni kiritib o'tishimiz mumkin¹:

- 1.Tanishuv: Interfaol ta'lim metodlari, bolalar bilan muomala qilishni osonlashtiradi va ularga o'zlarini izohlash va fikrlarini ifoda qilish imkoniyatini beradi. Tanishuvning o'ziga xos uslubi bilan, bolalarning qobiliyati, tafakkuri hamda o'zlarining shaxsiy sifatlarini ham rivojlantirish mumkin.
- 2.Ishbilarmonlik: Bolalar interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish

¹ Qahramonovna Inadullayeva S.Q.Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish usullari va texnologiyalari turli yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish

orqali amaliyotga asoslangan mashg'ulotlar bilan ishlay oladilar. Bu ularning ijodiy va fikriy qobiliyatlarini rivojlantirishda o'zini ko'rsatish, o'zini bajarish va 3.Kooperatsiya: Interfaol ta'lim metodlari jamoatchilik ruhiyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar guruhlarida bu uslublar asosan alohida yoki hamkorlik qilish orqali o'zlarini boshqalar bilan o'rganishadi, maslahatlar beradi va muammosiz muammolar hal qilish uchun qo'llashadi.

Xulosa qilib aytkada Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur rivojlanishi nafaqat kognitiv jarayonlar balki til, ijtimoiy aloqalar va qobiliyatlar bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkuri kelajakdagi o'zlashtirish qobiliyatlari uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Tafakkurning rivojlanishi nafaqat mantiqiy tahlil qobiliyati, balki izlar qoldirish, muammolarga turli yo'llar bilan yondashish, sabab natija bilan yondashishni anglash kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islomov, M. (2018). Mustaqil ta'lim metodlari va ularning ta'limdagi o'rni. — Toshkent: O'zbekiston xalq ta'limi nashriyoti.
2. Karimova, D. (2021). Zamonaviy ta'limda muammoli va loyiha metodlari. — Toshkent: Ilmiy nashr.
3. Abdullayev, S. (2019). Mustaqil ta'limning psixologik asoslari. — Toshkent: Fan va ta'lim.
4. Rahimova, N. (2020). Oliy ta'limda mustaqil ta'limni tashkil etish. — Toshkent: Ta'lim nashriyoti.